



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 3-dekabr, № 252 (9147)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini
telefoningiz orqali skaner qiling.



JIZZAX VILOYATINI HAR TOMONLAMA RIVOJLANGAN HUDUDGA AYLANTIRISHGA QARATILGAN SA'Y-HARAKATLAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2-dekabr kuni ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonlari bilan tanishish hamda kelgusidagi vazifalarni faollar ishtirokida belgilab olish uchun Jizzax viloyatiga tashrif buyurdi.



Davlatimiz rahbari dastlab zamonaviy va qulay yo'l infratuzilmasini barpo etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Viloyat markazini “M-39” xalqaro avtomobil yo'liga bog'lash maqsadida qariyb 290 milliard so'm hisobidan 700 metrlik yo'lo'tkazgich va 4 kilometrlik yangi avtomobil yo'li qurildi.

Mazkur yo'l har kuni 14 mingdan ortiq transport vositalarini o'tkazish imkoniyatiga ega.

Shu paytgacha ushbu yo'nalishdan aholi shaharga kirish-chiqish uchun 25 kilometrlik aylanma yo'ldan foydalanishga majbur edi. Yangi inshoot tufayli bu masofa 4 kilometr gacha qisqardi, eski yo'ldagi tirbandliklar bartaraf etildi. Bu nafaqat haydovchilar, balki tadbirkorlar, logistika va xizmat ko'rsatish sohasi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Metall konstruksiyalardan zamonaviy texnologiya asosida barpo etilgan o'tkazgichning xizmat muddati 100-yil deb baholanmoqda. An'anaviy temir-beton o'tkazgichlar, odatda, 50 yil xizmat qiladi. Demak, xizmat muddati ikki barobar uzaydi.

Loyihaning zana bir muhim jihati — ilgari yo'lovchi va yuk poyezdlar o'tgan paytda avtomobillar temir yo'l kesishmasida to'xtab qolishga majbur edi, endilikda esa yo'lo'tkazgich qurilgani tufayli tez tibbiy yordam, o't o'chirish va boshqa maxsus

xizmatlarning harakati ancha yengillashadi.

Shu yerning o'zida davlatimiz rahbariga atom energetikasi loyihalarining borishi to'g'risida axborot berildi.

Ayni paytda Jizzax viloyatida integratsiyalashgan ikkita kam quvvatli reaktor va ikkita katta reaktordan iborat atom elektr stansiyasini barpo etish boshlangan.

Hozirgi bosqichda reaktor binosi uchun kotlovan qazish ishlari faol pallaga kirgan. Qurilish-montaj bazasi uchun yer tekislash, betonlash, armatura o'rnatish ishlari bajarilmoqda. Quruvchilar yashashi uchun vaqtinchalik turarjoy majmuasi barpo etilgan.

Atom elektr stansiyasi uchun zarur qurilish materiallarini mahalliyashtirish, oliygohlarda soha uchun kadrlar tayyorlashni kengaytirish rejalari taqdimot qilindi.

Bo'lajak elektr stansiyada mehnat qiladigan mutaxassislar va ularning oilalari uchun monoshaharcha qurish loyihasi haqida ma'lumot berildi. Shaharcha AESdan 16 kilometr uzoqlikda joylashgan, 10 ming kishiga mo'ljallangan bo'ladi, unda barcha zarur infratuzilma, ijtimoiy va xizmat ko'rsatish obyektlari ko'zda tutiladi.

Prezidentimiz Jizzax shahriga kirish qismini zamonaviy qiyofaga keltirish bo'yicha master-reja va renovatsiya loyihalarini taqdimoti bilan ham tanishdi.

Renovatsiya dasturi asosida Jizzaxda eski uy-joylar o'rnida zamonaviy, qulay va xavfsiz turarjoylar barpo etilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, IT-markaz binosini barpo etish, hunarmandchilik markazini tashkil etish, ayrim mavjud majmualarni rekonstruksiya qilish hamda gavjum ko'chalarni tartibga keltirish kabi loyihalar bilan tanishildi.

— Bugungi Jizzax — kechagi Jizzax emas. Viloyatning salohiyati, imkoniyati karrasiga oshdi, odamlarning hayotga, ishga munosabati tubdan o'zgardi. Shu imkoniyatlarni aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladigan aniq loyihalarga aylantirishimiz kerak, — dedi Prezident.

Taqdimotlar davomida muhokama qilingan masalalar yuzasidan mutasaddilarga aniq topshiriqlar berildi.

Davlatimiz rahbari Jizzax politexnika instituti qoshida tashkil etilgan Avtomobilsozlik muhandislik maktabi faoliyati bilan tanishdi.

Bu yerda “BYD Uzbekistan Factory” va “ADM Jizzakh” korxonalari bilan malakali mutaxassislar tayyorlash va ularni ishga joylashtirish bo'yicha hamkorlik o'rnatilgan.

Muhandislik maktabida transport sohasiga ixtisoslashtirilgan to'rt ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv dasturlari yangicha yondashuv asosida tashkil etilgan. Xususan, ikkinchi kursni yuqori ko'rsatkichlar bilan tamomlagan talabalar “BYD” zavodi talablari

asosida ishlab chiqilgan zamonaviy o'quv platformalarida ikki yillik dual ta'lim oladi. Talabalar zavod bilan to'g'ridan-to'g'ri hamkorlikda amaliy mashg'ulotlarni ham o'tab boradi, bu esa ularga maxsus ishga yo'llanma sertifikatiga ega bo'lish imkonini beradi.

Qisqa muddatli tayyorlov kurslarida avtomobil zavodiga ishga kiruvchi nomzodlar, zavod ishchilari va ishsiz yoshlarga o'zlari qiziqqan kasblar o'rgatiladi. Bu yerda “BYD” avtomobil ishlab chiqarish minikonveyeri ham tashkil etilgan. Ishlab chiqarish sexida payvandlash, bo'yash, yig'uv va sifat nazorati bo'limlari mavjud.

Elektromobil va zaryadlash stansiyasining tuzilishi, elektromobillarga xizmat ko'rsatish, sanoat va dasturlash muhandisligi, tannarx va revers muhandisligi yo'nalishlariga ixtisoslashtirilgan maxsus xonalar tashkil qilingan.

Dunyo avtomobil sanoatida bitta qoida mavjud: raqibni tahlil qilmagan kompaniya rivojlana olmaydi.

Jizzaxdagi ushbu muhandislik maktabida birinchi marta mahsulotni texnik-analitik solishtirish, xarajatlarni modellashtirish (cost modeling), ishlab chiqarishni optimallashtirish, jarayonlarni global standartlar bilan taqqoslash kabi ko'nikmalar ham o'rgatilmoqda.

Muhandislik maktabi faqat talabalar uchun emas, balki sohada faoliyat yuritish istagidagi yoshlar va mutaxassislar uchun ham ochiq. Bu yerda malaka oshirish dasturlari, boshlang'ich kasbiy tayyorgarlik kurslari va tadbirkorlar uchun amaliy o'quv modullari tashkil etilgan. Ularda ilg'or mutaxassislar va ishlab chiqarish korxonalarining tajribali muhandislari faol ishtirok etadi.

Maktabning asosiy maqsadi — talabani tayyor kadr sifatida ish joyiga borishidan oldin amaliyot muhitiga olib kirishdan iborat. Natijada bitiruvchilar bozor talablariga to'liq javob beradigan, yetuk va raqobatbardosh mutaxassisga aylanadi.

Davlatimiz rahbari maktabdagi mashg'ulotlar jarayonini kuzatdi, minikonveyerda ishlayotgan talabalar bilan suhbatlashdi.

Prezidentimiz shu yerda respublika va viloyat faollari bilan ham muloqot qildi.

Keyingi yillarda Jizzaxda sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa ko'plab sohalarda yaxshi natijalarga erishilayotgani qayd etildi. Lekin ishga solinmagan imkoniyatlar hali ko'pligi aytiladi.

— Jizzaxga kelib, yangi “o'sish

nuqtalari”ni belgilab olishni maqsad qilganmiz. Asosiysi, aholi, xususan, yoshlarga munosib sharoit yaratish, yuqori daromadli ish bilan ta'minlash, — dedi davlatimiz rahbari.

Prezident Shavkat Mirziyoyev yangidan barpo etilgan Jizzax viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markaziga tashrif buyurdi.

Ushbu majmua aholiga barcha zarur tibbiy xizmatlarni bir joyning o'zida ko'rsatish imkonini yaratishi bilan katta ahamiyatga ega. Loyiha viloyatda tashkil etilayotgan tibbiyot klasterining dastlabki bosqichi hisoblanadi.

Zamonaviy tibbiyotda bunday klasterli yondashuv tezkor diagnostika, yuqori texnologiyali davolash va shifo istaganlar uchun byurokratik jarayonlarni kamaytirishning eng samarali modeli sifatida tan olingan.

Davlatimiz rahbariga muassasa imkoniyatlari haqida ma'lumot berildi. Prezident bemorlarni davolash, shifokorlarning samarali ishlashi uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Markaz zamonaviy yetti qavatli binoda joylashgan bo'lib, kuniga 400 nafargacha bemorni qabul qilish quvvatiga ega. Statsionar o'rinlari 344 ta bo'lgan markazga umumiy qiymati 100 milliard so'mdan ortiq zamonaviy jihozlar — MRT, MSKT, laboratoriya komplekslari hamda yuqori texnologiyali jarrohlik uskunalari o'rnatilgan.

Poliklinika, radiologiya, kardiokirurgiya, neyrokirurgiya, oftalmologiya va urologiya kabi bo'limlarning bir majmuada joylashgani tibbiy xizmat ko'rsatishni tezlashtiradi, shifokorlar o'rtaidagi hamkorlik va bemorlar harakatini yengillashtiradi. Ayniqsa, yangi imkoniyatlar tufayli yuqori texnologiyali operatsiyalar uchun navbatlarning qisqarishi loyihaning eng katta ijtimoiy samarasidir.

Markaz ishga tushishi natijasida Jizzax aholisining respublika shifoxonalari yoki qo'shni viloyatlarga qatnashi 75 — 80 foizga kamayadi.

Tibbiyot klasterida Qozon federal universiteti bilan mahalliy mutaxassislar uchun malaka oshirish, ilg'or diagnostika va davolash usullarini joriy etish, zamonaviy tibbiy standartlarni o'zlashtirish imkoniyatini beruvchi uzoq muddatli hamkorlik o'rnatiladi.

Prezidentimiz sog'liqni saqlash mas'ullari va xodimlari bilan muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari tibbiyot klasterlari va ko'p tarmoqli

klinikalari boshqaruvida eskicha yondashuvlardan chekinib, yangi mexanizmlarni joriy qilish, jumladan, tibbiyotning har bir yo'nalishi bo'yicha xorijdan xalqaro ekspertlar va yetakchi menejerlarni jalb qilib, mahalliy mutaxassislarni o'zimizda, bevosita muassasalarda o'qitish, malakasini oshirish, raqamlashtirish hamda sun'iy intellektdan foydalanishni kengaytirish zarurligini ta'kidladi. Bu Jizzax tajribasi bo'lishi kerakligi qayd etildi.

Prezidentimiz aholining tibbiy xizmatlardan roziligi masalasiga alohida to'xtaldi. Sohada amalga oshirilayotgan har qanday o'zgarishda, eng avvalo, inson qadri ustuvor bo'lishi zarurligi ko'rsatib o'tildi.

— Odamlarimizni ko'proq bino, undagi sharoit emas, xizmatning sifati, shifokorning bilimi, malakasi, halolligi o'ylantiradi. Shifoxonaga kelgan odam, avvalo, e'tibor va to'g'ri tashxis, tez va sifatlil davolanishni istaydi. Shuning uchun eng katta vazifa — aholiga chin dildan xizmat qiladigan, yuksak malaka va kompetensiyaga ega bo'lgan tibbiyot tizimini yaratishdir, — dedi davlatimiz rahbari.

Shu yerning o'zida Qozon tibbiyot universitetining Jizzax filiali o'qituvchilari va talabalari bilan suhbat bo'lib o'tdi. O'quv jarayonida amaliy darslarni ko'paytirish, talabalarni jahon tibbiyotining yutuqlari va ilg'or tajribasi bilan doimiy tanishtirib borish muhim ekanini ta'kidladi.

Prezidentimiz Jizzax viloyatiga tashrifi doirasida Sharof Rashidov tumanidagi “Agromarkaz” qishloq xo'jaligi korxonalari majmuasida ham bo'ldi.

Yurtimizda qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor tufayli sohada imkoniyatlar kengayib, hosildorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Joylarda agromarkazlar tashkil qilinib, fermer va dehqonlarga kompleks xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilmoqda.

Jizzax viloyatining Sharof Rashidov tumanida ham ana shunday markaz faoliyat boshladi.

Markazda o'simliklarni himoya qilish laboratoriyasi, veterinariya dorixonasi, agronom maslahati, urug' va ko'chatlar yetkazib berish, aholi xonadonlariga issiqxonalarni qurish, agromarket do'koni, minitexnikalar sotish va ularga xizmat ko'rsatish kabi yo'nalishlar mavjud.

(Davomi 2-betda).



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining
F A R M O N I

U. M. MUSTAFOYEVNI
JIZZAX VILOYATI HOKIMI
LAVOZIMIGA TAYINLASH
TO'G'RISIDA

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 15-bandi va 124-moddasiga asosan hamda xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining qaroriga muvofiq **Ulug'bek Mavlonovich Mustafoyev** Jizzax viloyati hokimi lavozimiga tayinlansin.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2025-yil 2-dekabr

8-dekabr — O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasi qabul qilingan kun

ADOLAT USTUVOR BO'LGAN
DAVLAT KUCHLIDIR

Yurtimizda yaqinlashib kelayotgan 8-dekabr — Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 33 yilligi nafaqat tarixiy voqea, balki yurtimizning siyosiy-huquqiy taqdirini belgilagan, millatimizning o'ziga ishonishi, o'z qudratini anglashi, ozodlik va davlatchilik yo'lidagi qat'iyatining ramzi sifatida mutlaqo yangi ruhda tantana bilan kutib olinmoqda.

33 yil — tarixda ko'p vaqt emasdek tuyulishi mumkin, ammo davlatchiligimiz tarixida bu muddat — muqaddas poklanish, huquqiy uyg'onish, ma'naviy tiklanish, milliy o'zlikni anglash, haqiqiy davlatchilik me'yorlarini shakllantirishning g'oyat ulug' va sharafli davri.

Konstitutsiyamiz qabul qilingan kundan buyon o'tgan har bir yil xalqimiz o'z huquqiy madaniyatini oshirgan, fuqarolik javobgarligini mustahkamlagan, davlat bilan jamiyat

o'rtasidagi ishonch ildiz otgan, huquq ustuvor bo'lgan munosabatlar chuqurlashgan yillar bo'ldi.

Konstitutsiya xalqning vijdoni, davlatning huquqiy poydevori, jamiyatning ijtimoiy shartnomasi bo'lmish muqaddas hujjatdir. U millatning qudrati, davlatning barqarorligi va inson qadriini ta'minlaydigan asosiy huquqiy qalqon sifatida bugun yanada keng ma'noda namoyon bo'lmoqda.



Uchrashuv

IZCHIL MUSTAHKAMLANIB
BORAYOTGAN STRATEGIK SHERIKLIK

Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safoyev yurtimizga tashrif buyurgan bir qator nufuzli mehmonlar bilan uchrashuvlar o'tkazdi.

Xususan, Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Federatsiya Kengashi Federativ tuzilma, mintaqaviy siyosat, mahalliy o'zini o'zi boshqarish

va Shimol ishlari qo'mitasi raisi Andrey Shevchenko bilan uchrashdi.

Suhbat chog'ida O'zbekiston va Rossiya

o'rtasidagi strategik sheriklik izchil mustahkamlanib borayotgani, ayniqsa, ikki davlat Prezidentlari o'rtasidagi muntazam muloqot hamkorlikning barcha yo'nalishida ish sur'atini oshirayotgani ta'kidlandi.



O'ZARO ISHONCHGA ASOSLANGAN
UZOQ MUDDATLI HAMKORLIK

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Italiya parlamentining Deputatlar palatasi vakillari, shuningdek, “Italiya — Markaziy Osiyo” parlamentlararo hamkorlik bo'yicha guruhlar o'rtasida videokonferensiya shaklida onlayn uchrashuv bo'lib o'tdi.

Muloqot avvalida Italiya tomoniga “O'zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar, Oliy Majlis Qonunchilik

palatasi va Senatning tarkibiy tuzilishi, parlamentning qonun ijodkorligi va nazorat yo'nalishidagi faoliyati haqida ma'lumot berildi.



ADOLAT USTUVOR BOʻLGAN DAVLAT KUCHLIDIR



Jamiyat taraqqiyotida yangi bosqich

2023-yilda qabul qilingan Konstitutsiyaning yangi tahriri esa yurtimiz huquqiy hayotidagi eng buyuk qadamlardan biri boʻldi. Inson qadri eng yuqori koʻrsatkich sifatida belgilangan huquqiy hujjat – xalqchil davlat, adolatli jamiyat va insonparvar siyosatning konstitutsiyaviy asosi mustahkamlandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya inson huquqlari kafolatlarining kengayishi, sud mustaqilligining kuchayishi, davlat idoralari javobgarligining oshishi, parlament va jamoat nazoratining yuqori darajaga koʻtarilishi, jamiyat boshqaruvida fuqarolarning faol ishtiroki kabi muhim oʻzgarishlarni huquqiy jihatdan taʼminladi. Bu – jamiyatning huquqiy va siyosiy taraqqiyotida yangi bosqich.

Yangi Oʻzbekiston davrida Konstitutsiyamiz qonunlar tizimining ustuni, davlat siyosati va islohotlarining asosiy mezon, jamiyatimizdagi adolat va barqarorlikning kafolati sifatida yuksak maʼnaviy-siyosiy kuch kasb etdi.

Mamlakatimizda kechayotgan oʻzgarishlar faqat yangilanish emas, balki butun davlatchilikni yangi bosqichga koʻtargan ulkan siyosiy-maʼnaviy harakatdir. Yangi Oʻzbekiston tarixidagi bugungi davr xalqimiz qudrati, davlatimiz irodasi va milliy tafakkurimiz yuksalishi bilan tobora kengayib borayotgan yuksak maʼnaviy jarayondir.

Har bir qonun, har bir qaror, har bir tashabbus faqat huquqiy hujjat emas, balki inson taqdiri, xalq manfaat, milliy taraqqiyot yoʻlini belgilayotgan oliy siyosiy vazifadir.

Tizim nufuzini oshirishga qaratilgan huquqiy qadam

Davlatning barcha tarmogʻida amalga oshirilayotgan islohotlar xalqimizning huquqiy ongini yuksaltirmoqda, fuqarolarning davlatga boʻlgan ishonchini mustahkamlamoqda, jamiyatda adolat mezonlarini oʻrnatmoqda.



“Davlat oʻz faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini taʼminlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi”.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasi.

Ana shunday jarayonda Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan 2025-yil 24-noyabrda qabul qilingan “Sudyalar hamjamiyati organlari faoliyatining samaradorligi va ochiqqligini oshirish hamda sud mustaqilligi kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmon yurtimiz siyosiy-huquqiy hayotidagi eng muhim burihlardan biridir.

Mazkur hujjat sud hokimiyatining

haqiqiy mustaqilligini kafolatlaydigan zamonaviy tizimni yaratgan, sudyalari faoliyatini shaffof qilish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va sudyalari hamjamiyati organlari nufuzini oshirishga qaratilgan beqiyos huquqiy qadamdir.

Sudyalar uchun avvalgi 5 yillik faoliyat va undan keyingi chegaralanmagan muddatli ishlash



ishtiroki 30 foizdan yuqori bosqichlarga koʻtarilishi – adolatli jamiyat, imkoniyatlar tengligi va inson qadrini yuksaltirish siyosatining amaliy natijasi.

Sud jarayonining shaffofligi, ochiqqligi, qarorlarning asosliqligi, inson huquqlari himoyasining yangi mexanizmlari joriy etilishi zamonaviy huquqiy davlatning asosiy ustuni boʻlib xizmat qiladi.

Prezidentning “Sudlar faoliyatiga sunʼiy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik taʼminotini yaxshilashga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Farmoni esa sud tizimini XXI asrning eng ilgʻor huquqiy standartlariga moslashtirishga qaratilgan gʻoyat muhim qadam boʻldi.

Intellektual tahlil, raqamli bilimlar, elektron adolat, tezkor va aniq qarorlar sud tizimini jahon amaliyotining eng ilgʻor bosqichiga koʻtarmoqda. Bu faqat texnologiya emas, bu adolatning yangi darajasi, fuqarolar huquqlarining zamonaviy himoyasi, inson qadrining yangi huquqiy kafolatidir.

Kelajak sudyasi qiyofasi

Davlatimiz rahbarining “Odil sudlov sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari

toʻgʻrisida”gi Farmoni kelajak sudyasining qiyofasini belgilab berdi. Bugungi kun sudyasi bilimli, fikri ravshan, halol, vijdonli, insonparvar, zamonaviy texnologiyalarni chuqur biladigan, jamiyat manfaatini himoya qila oladigan yuksak maʼnaviyat sohibidir.

Bunday sudyalari korpusi Yangi Oʻzbekiston huquqiy davlatining eng muhim inson kapitali hisoblanadi.

Oʻzbekistonning xalqaro nufuzi ham bugun yangi bosqichda oshib bormoqda. Oʻzbekiston global olamda va Osiyoda huquqiy siyosatni yoʻnaltira oladigan davlatlar qatorida turibdi. Osiyo Konstitutsiyaviy sudlari va ekvivalent institutlar Assotsiatsiyasi raisligining Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga topshirilishi – Oʻzbekistonning huquqiy salohiyati, mintaqaviy nufuzi va xalqaro huquqiy maydondagi yangi yetakchilik missiyasining yana bir karra tan olinishi boʻldi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha huquqiy islohotlar, Konstitutsiyamizda mustahkamlangan huquqiy asoslar, yangi farmonlar, sud tizimidagi sunʼiy intellektga asoslangan yangilanishlar, kadrlar tayyorlashga qaratilgan qarorlar – bularning barchasi yagona maqsadga qaratilgan: **Oʻzbekistonni adolat ustuvor boʻlgan haqiqiy huquqiy insonparvar davlat sifatida mustahkamlash.**

Adolat ustuvor boʻlgan davlat – kuchli davlat. Adolat taʼminlangan joyda taraqqiyot, demokratiya va farovonlik, ishonch hamda kelajak bor.

Mirzo Ulugʻbek ABDUSALOMOV, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi Raisi, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan yurist.

Fikr

ISTIQBOLLI LOYIHALAR FAROVONLIK GAROVI

Prezidentimizning Jizzax viloyatiga bu galgi tashrifi hudud rivojida muhim oʻrin tutib, keng imkoniyatlarga, istiqbolli loyihalarni qoʻllab-quvvatlashga zarur shart-sharoit yaratadi.

Dastlab yoʻl-transport infratuzilmasi, qishloq xoʻjaligi, taʼlim, tibbiyot va xizmatlar sohasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishildi. Tashrif davomida muhim takliflar ilgari surildi, masʼullar oldiga ustuvor vazifalar qoʻyildi. Bular nafaqat bir viloyat, balki respublika ahamiyatiga molik boʻlib, oʻz ichiga yaqin istiqbol va uzoq muddatli strategik maqsadlarni ham qamrab olgani bilan ahamiyatlidir.

Taʼkidlash joizki, soʻnggi yillarda Jizzax viloyatida roʻyobga chiqarilayotgan keng qoʻlamli islohotlar natijasida barcha sohada oʻsish surʼatlari kuzatilmoqda. Oʻtgan davrda respublikadagi sanoati eng tez oʻsayotgan hududga aylangani bunga yaqqol misoldir. Jumladan, sakkiz yilda 6,5 mlrd. dollarlik investitsiya loyihalari ishga tushgan boʻlsa, shuning 45 foizi sanoat hissasiga toʻgʻri keladi.

Ayniqsa, viloyatning qishloq xoʻjaligi sohasi ham tubdan diversifikatsiya qilingani eʼtiborga molik. Xususan, Baxmal, Gʻallaorol, Zomin, Yangiobod, Forish tumanlari bogʻdorchilikka ixtisoslashtirilib, yangi bogʻ va tokzorlar barpo etildi. Natijada viloyatda meva-sabzavotni quritish, saqlash, qadoqlash, qayta ishlash quvvatlari yaratildi.

Keyingi vaqtda viloyatda yirik loyihalarga qoʻl urilayotganini alohida aytish kerak. Jizzaxda eski uy-joylar oʻrnida zamonaviy, qulay va xavfsiz turarjoylar Renovatsiya dasturi asosida barpo qilinishi rejalashtirilgani, shuningdek, IT-markaz binosini tiklash, hunarmandchilik markazini tashkil etish, ayrim mavjud majmualarni rekonstruksiya qilish hamda gavjum koʻchalarni tartibga keltirish kabi loyihalarga tashrif davomida alohida eʼtibor qaratildi va tegishli koʻrsatmalar berildi. Albatta, bular mamlakatimiz taraqqiyotini, xalqimiz farovonligini yangi, yanada yuksak bosqichga koʻtarishga turtki beradi. Zero, davlatimiz rahbari taʼkidlaganidek, bugungi Jizzax kechagi Jizzax emas. Viloyatning salohiyati, imkoniyati karrasiga oshdi, odamlarning hayotga, ishga munosabati tubdan oʻzgardi. Shu imkoniyatlarni aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladigan aniq loyihalarga aylantirishimiz kerak.

Yana bir muhim loyiha – viloyatda yangidan barpo etilgan Jizzax viloyati koʻp tarmoqli tibbiyot markazi bugungi kunda aholiga barcha zarur tibbiy xizmatlarni bir joyning oʻzida koʻrsatish imkonini yaratishi bilan katta ahamiyatga ega. U viloyatda tashkil etilayotgan tibbiyot klasterining dastlabki bosqichi hisoblanadi. Zamonaviy tibbiyotda bunday klasterli yondashuv tezkor diagnostika, yuqori texnologiyali davolash va shifo istaganlar uchun byurokratik jarayonlarni kamaytirishning eng samarali modeli sifatida tan olingan.

Prezidentimiz bemorlarni davolash, shifokorlarning samarali ishlashi uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishish jarayonida markazning Jizzax aholisi uchun ahamiyati kattaligini taʼkidladi.

Davlatimiz rahbarining xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida ishtirok etishi hudud rivojiga berilayotgan strategik eʼtibor va yuksak ishonch namunası boʻldi.

Sessiyada Prezidentimiz viloyatda sanoat va investitsiya sohalarni rivojlantirish boʻyicha yangi tashabbuslarni ilgari surdi. Albatta, bular Jizzax viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda yangi imkoniyatlar ochadi. Qoʻyilgan vazifalar esa nafaqat yaqin istiqbolni, balki uzoq muddatli strategik maqsadlarni ham oʻz ichiga olishi bilan ahamiyatlidir. Albatta, ularni amalga oshirishda barchamiz yanada faol va tashabbuskor boʻlishimiz maqsadga muvofiq.

Muqaddas OʻRAZALIYEVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Mulohaza

INSON VA TABIAT UYGʻUNLIGI

Bugungi shiddat bilan kechayotgan globallashuv jarayoni dunyo eko-tizimini sekin-asta izdan chiqarmoqda. Bu esa tizimli yondashuvni, inson hamda tabiat uygʻunligiga asoslangan choralarni koʻrishni taqozo etmoqda.

Shu maʼnoda, Prezidentimizning “Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash boʻyicha kechiktirib boʻlmaydigan chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Farmoni nafaqat poytaxtimizda, balki butun mamlakatimiz boʻylab ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga qaratilgan kechiktirib boʻlmaydigan qatʼiy amaliy harakatlarni boshlab bergan tarixiy hujjatdir.

Bu bilan poytaxtimizda mikroqilim barqarorligini taʼminlash boʻyicha yirik loyihalarga start berildi. Uch oy muddatda shaharning toʻrt yoʻnalishi boʻylab kamida uchttadan sunʼiy koʻl va suv havzasi barpo etilishi, ikki hafta ichida Toshkentdagi favvoralar sonini kamida ikki baravarga koʻpaytirish yuzasidan alohida dastur ishlab chiqilishi kabi vazifalar belgilandi.

Taʼkidlash lozimki, yangi sunʼiy koʻl va suv havzalarini barpo etish faqat aholi uchun dam olish maskanlarini koʻpaytiribgina qolmay, balki shahardagi suv muvozanatini saqlashga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Mutaxassislar fikricha, bu kabi suv inshootlari havodagi namlikni oshirib, yoz faslida kuchli issiqlarni biroz yengillashtiradi. Qolaversa, hududlarda koʻproq daraxt va gullar ekilib, har bir koʻl yonida kichik yashil bogʻlar barpo etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Favvoralar soni ikki baravar koʻpaytirilishi esa shahar infratuzilmasining estetik qiyofasini yaxshilash qatorida mikroqilimni meʼyorlashtirishda muhim omilga aylanadi. Havo harorati keskin koʻtariladigan davrlarda favvoralar orqali haroratni 1-2 darajaga pasaytirishga erishish mumkin.

Mazkur chora-tadbirlar shaharsozlik siyosatining ekologik yoʻnalishini kuchaytirib, jamoat joylarini inson uchun yanada qulay va xavfsiz qilishga qaratilgan. Ekolog va mutaxassislar bu loyihalarning oʻz vaqtida va puxta amalga oshirilishi natijasida Toshkent kelgusi 3 – 5 yilda Markaziy Osiyoda ekologik barqaror megapolislar qatoriga qoʻshilishini taʼkidlamogda.

Farmonning muhim jihatlaridan yana biri shundaki, unga binoan poytaxtda

ekologik muammolarni bartaraf etish va havo sifatini yaxshilash maqsadida maxsus komissiya tuzildi va uning zimmasiga tabiiy changlanish kuchaygan davrlarda sanoat korxonalari, transport vositalari, issiqlik taʼminoti tizimlari va boshqa sohalar faoliyatiga cheklovlar joriy qilish vakolati berildi.

Atmosfera havosiga zararli moddalar chiqaruvchi issiqxonalar va boshqa obyektlar faoliyatini vaqtincha yoki toʻliq toʻxtatish ham komissiya vakolatlariga kiritilgan. Shu bilan birga, Toshkent shahri hududidan tashqariga koʻchirilishi shart boʻlgan sanoat korxonalari va sanoat zonalarini aniqlash vazifasi qoʻyildi.

Bundan tashqari, maxsus komissiya davlat organlari, tashkilotlar, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari faoliyatini ekologik talablar ijrosini taʼminlash maqsadida muvofiqdastirib boradi. Daryo, kanal va ariqlar kabi suv obyektlari qirgʻoq muhofaza hududlarida har qanday qurilish ishlarini taqiqlash ham uning muhim vakolatlaridan biri hisoblanadi.

Maxsus komissiyaning vakolatlari ekologik vaziyatni yaxshilashda muhim va samarali mexanizm, desak, toʻgʻri boʻladi. Uning vakolatlariga kiruvchi vazifalar ijrosi natijasida poytaxtimizda ekobarqarorlik taʼminlanib, havo ifloslanishini sezilarli ravishda kamaytirishga erishiladi. Zero, komissiyaning vakolatlari bir-birini toʻldiruvchi va tizimli koʻrinishda boʻlib, ekologik xavflarni kamaytirish, tabiat resurslarini muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni taʼminlashda strategik ahamiyatga egadir.

Demak, mazkur Farmon ijrosi oʻz mohiyatiga koʻra Toshkentning har bir koʻchasi va uyiga toza havo olib kirishga va kelajak avlod uchun sogʻlom muhitni taʼminlashga xizmat qiladi.

Sodiqjon TURDIYEV, Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xoʻjaligi masalalari va ekologiya qoʻmitasi aʼzosi.

KONSTITUTSIYA – YOSHLAR NIGOHIDA

Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti aʼzolari Toshkent xalqaro universiteti talabalari bilan “Konstitutsiya – yoshlar nigo-hida” mavzuida ochiq muloqot oʻtkazdi.

Tadbir

Tadbir davomida yurisprudensiya yoʻnalishida tahsil olayotgan talabalarga yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning yaratilish tarixi, mazmun-mohiyati hamda undagi asosiy oʻzgarishlar haqida batafsil maʼlumot berildi.

Seminar tarzida oʻtkazilgan muloqotda Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni sifatida shaxs, jamiyat va davlat oʻrtasidagi munosabatlarni tartibga solishi taʼkidlandi.

Muloqot chogʻida yangi tahrirdagi Konstitutsiya inson huquqlari, demokratiya, erkinlik, barqarorlik, tenglik va taraqqiyot tamoyillariga asoslangan adolatli davlat qurish uchun mustahkam huquqiy asos yaratib bergani alohida qayd etildi.

Uchrashuvda taʼlim va ilm-fan sohasiga oid konstitutsiyaviy yangiliklar, davlat va nodavlat taʼlim tashkilotlarini rivojlantirish, akademik erkinlik, inklyuziv taʼlim masalalari ham muhokama qilindi.

Talabalarga Yoshlar parlamenti faoliyati, uning maqsad va vazifalari hamda yoshlarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish borasidagi tashabbuslari haqida maʼlumot berildi.

“Xalq soʻzi”.

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI – BARQARORLIK OMILI

Bugungi globallashuv davrida oziq-ovqat xavfsizligi nafaqat iqtisodiy masala, balki ijtimoiy barqarorlik, milliy xavfsizlik, salomatlikni muhofaza qilishning asosiy yoʻnalishlaridan biriga aylandi. Iqlim oʻzgarishlari, geosiyosiy keskinliklar va global pandemiyalar kabi omillar bu masalaning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Shu bois soʻnggi yillarda mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, sohaga investitsiya mablagʻlarini jalb qilish va eksport faoliyatini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha keng koʻlamli chora-tadbirlar amalga oshirilmogda.

Mushohada

Oziq-ovqat xavfsizligi – bu har bir insonning toʻlaqonli va sogʻlom turmush tarzini taʼminlash uchun yetarli, xavfsiz va sifatli oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanishidir. Bu nafaqat inson salomatligi va farovonligining asosi, balki milliy suverenitet, nizolarning oldini olish va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini taʼminlashning muhim omili sifatida eʼtirof etiladi.

Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash borasida qator muhim natijalarga erishildi. Olib borilgan ishlar natijasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularning yillik eksporti hajmi keskin oshdi. Raqamlarga murojaat qiladigan

boʻlsak, oxirgi uch yilda import oʻrnini bosuvchi 75 turdagi oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarilishi taʼminlanib, import hajmi 7,4 foizga kamaydi. Respublika sanoatida oziq-ovqat sanoati ulushi 14 foizdan 16,6 foizga koʻtarildi. Bu ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan toʻldirish va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim qadam boʻldi. Ushbu sohadagi islohotlar mustahkam huquqiy baza bilan taʼminlangan.

“Oziq-ovqat xavfsizligi toʻgʻrisida”gi Qonun, Oʻzbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi va sogʻlom oziqlanishni taʼminlashning 2030-yilgacha moʻljallangan strategiyasi,

shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga moʻljallangan strategiyasi kabi muhim hujjatlar qabul qilinishi sohaning strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Ular oziq-ovqat xavfsizligining zamonaviy konsepsiyasini yaratdi, unda mahsulotlarning sifati, xavfsizlik, ozuqaviy va sanitariya jihatlari, shuningdek, tashqi, ichki, ekologik va global iqlim tahdidlariga qarshi kurashish masalalari qamrab olingan.

Mamlakatimiz qishloq xoʻjaligidagi tub oʻzgarishlar ham sohada hal qiluvchi rol oʻynaydi. Anʼanaviy tarzda paxta va gʻalla yetishtirishga ixtisoslashtirilgan yer maydonlari qisqartirilib, ularning oʻrniga sabzavot, dukkakli va poliz ekinlarini yetishtirishga ustuvor ahamiyat qaratilayotgani diqqatga sazovor. Bu aholining turli oziq-ovqat mahsulotlariga boʻlgan ehtiyojini qondirish, eksport salohiyatini oshirish va fermerlar daromadini koʻpaytirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, qishloq xoʻjaligida klaster va kooperatsiya tizimlarining joriy etilishi mahsulotlarni yetishtirishdan

tortib qayta ishlash, saqlash va eksport qilishgacha boʻlgan zanjirni samarali boshqarish imkonini berib, umumiy salohiyatni sezilarli darajada oshirdi.

Bundan tashqari, Sayxunobod tajribasi asosida toʻmoqdalarga mahsulot yetishtirishni qoʻllab-quvvatlash, aholini, ayniqsa, yoshlarni ish oʻrni va daromad bilan taʼminlashda, turmush tarzini yaxshilashda va umumiy oziq-ovqat yetishtirishni koʻpaytirishda muhim omil boʻlmoqda.

Oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlashda nafaqat davlat, balki jamiyatning har bir aʼzosi, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining faol ishtiroki muhimdir. Fuqarolar, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va ommaviy axborot vositalari oziq-ovqat sifati ustidan jamoatchilik nazoratini olib borishda faollik koʻrsatmoqda. Bunday jamoatchilik nazorati isteʼmolchilar huquqlari himoyasiga xizmat qiladi.

Global iqtisodiy oʻzgarishlar va iqlim tahdidlari sharoitida

oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash borasidagi davomli saʼy-harakatlarni jadallashtirish zimmamizdagi muhim vazifalardan biridir. Bunda qishloq xoʻjaligini modernizatsiyalash, mahsulotlar ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, agrar sektorga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni jalb etish va xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirish lozim. Shu bilan birga, malakali kadrlarni tayyorlash, oziq-ovqat sifati va xavfsizligi boʻyicha ilmiy salohiyatni oshirish ham uzoq muddatli rivojlanishning ajralmas qismi hisoblanadi.

Bu masala Oʻzbekiston uchun nafaqat iqtisodiy ustuvorlik, balki milliy barqarorlik, farovonlik va suverenitetning asosiy kafolatidir. Davomli saʼy-harakatlar, innovatsiyalar va xalqaro hamkorlik orqali Oʻzbekiston oʻz aholisini sifati va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan toʻliq taʼminlab, bu borada mintaqaviy yetakchi davlatlardan biriga aylanishi, shubhasiz.

Risqul SIDDIQOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

2026-yil 1-yanvardan “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimida instrumental-texnik tekshiruv xulosalari asosida bino va inshootlarning texnik holati monitoringi yuritiladi.

QOʻLYOZMALAR, MUZEYLAR VA YANGI LOYIHALAR:

QARDOSH YURTGA SERMAHSUL SAFAR

Shu yilning 24 – 26-noyabr kunlari o'zbekistonlik bir guruh olimlar Turkiya Respublikasida bo'lib, qator anjumanlar, davra suhbatlari, taqdimot va ko'rgazmalarda qatnashdi.

Turli madaniyat va qarashlar tutashgan mazkur qadimiy zaminni O'zbekiston bilan bog'lab turadigan mustahkam rishtalar bisyor. Xalqlarimiz tarixi umumiy ildizlarga borib taqaladi. So'nggi yillarda do'stona aloqalarimiz har taraflama mustahkamlanib borayotgani quvonarli hol. Delegatsiyamizning bu galgi tashrifidan maqsad ham o'zaro ilmiy muloqotni chuqurlashtirish va tajriba almashish edi.

Taassurot

Tarix va madaniy merosga ehtirom

1925-yili Usmoniylar davlatiga tegishli To'p'qopi, Do'lmabaxcha, Yildiz va boshqa tarixiy saroylar davlat tasarrufiga o'tkazilib, Milliy saroylar boshqarmasi tashkil etilgan edi. Ushbu tashkilotning ayni paytda 100-yilligi keng nishonlanmoqda. O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, "O'zarxiv" Milliy agentligi vakillaridan iborat olimlar mamlakatimizda madaniy merosni asrab-avaylash va keng targ'ib qilish masalalari bo'yicha ma'ruzalari bilan ishtirok etdi.

Xalqaro tadbirida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyati haqida namoyish qilingan videorolikda ilmiy tadqiqotlar, muzey ekspozitsiyalari, mahalliy va xorijiy ekspertlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar haqida keng ma'lumot berildi.

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi – xalqaro miqyosda ham tan olingan muassasalardan biri, – deydi Istanbul universiteti professori Emek Ushenmez. – Ko'pchilik ishtirokchilar markaz bilan tanishish, amaliy hamkorlik qilish tarafdori. Bu men uchun ham faxr, chunki markazning ilmiy loyihalarida bevosita qatnashganman.

2026-yil mart oyida markazning tantanali ochilishi rejalashtirilgan bo'lib, unda dunyo mamlakatlari, jumladan,

Turkiyadan ham yetakchi olimlar, muzey va kutubxona rahbarlari, xalqaro ekspertlar ishtirok etishi aytildi.

Yangi tashabbus

Islom hamkorligi tashkiloti tashabbusi bilan 1979-yilda Istanbul shahrida IRSIKA – Islom tarixi, madaniyati va san'ati tadqiqotlari markaziga asos solingan. Ushbu tashkilot islom san'ati, madaniyati, sivilizatsiyasi va tarixini o'rganish bo'yicha turli loyihalarni amalga oshirib kelmoqda. U yurtimizdagi qator ilmiy-ma'rifiy muassasalar bilan doimiy hamkorlikni yo'lga qo'ygan.

IRSIKada O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi bilan hamkorlikda fotoko'rgazmalar, turli uchrashuvlar tashkil etildi. Uning direktori Mahmud Erol Qilich bundan ikki yil muqaddam yurtimizda o'tkazilgan xalqaro kongressda O'zbekiston allomalari ensiklopediyasini yaratish tashabbusini ilgari surgan edi. Ushbu tashabbus doirasida ham bir qancha uchrashuvlar o'tkazildi va kelishuv asosida mazkur yirik loyihani amalga oshirish haqida so'z bordi.

O'zbekiston IRSIKA bilan hamkorlik qilayotgan 57 ta mamlakat orasida islom madaniyati va merosini asrab-avaylash borasida yetakchilikni qo'ldan bermay kelmoqda, – deydi Mahmud Erol Qilich. – O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi mamlakat rahbari g'oyasi va tashabbusi bilan amalga oshgan yirik megaloyihadir. U nafaqat O'zbekiston, balki butun islom olamida yirik loyiha. Markazlarimiz o'rtasidagi aloqalar kengayib borayotgani nihoyatda quvonarli. Xususan, O'zbekiston

allomalari ensiklopediyasini yaratish g'oyasi markaz tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgani bizni juda mamnun etdi.

O'zbekiston zamini o'z tarixida ikki buyuk Renessansni boshdan kechirgan, yuzlab buyuk allomalar, mutafakkir olimlar yetishib chiqqan. Betimsol kashfiyotlar, ilmiy-ma'rifiy, adabiy-badiiy asarlar yaratilgan. Ularning hayoti va faoliyati keng tadqiq etilayotgan bo'lsa-da, bu olimlarning barchasini qamrab oladigan qomusiy tadqiqotlarga qo'l urilmagan edi. Ushbu tashabbus IRSIKA mutaxassislari va turkiyalik olimlar tomonidan ham qo'llab-quvvatlandi. Bu asar elektron platformada va bosma nashr ko'rinishida, o'zbek, turk, ingliz va boshqa tillarda tayyorlanishi ko'zda tutilgan.

Qo'lyozmalar tilga kirganda...

Turkiya kutubxonalarida islom olamidagi eng nodir va qadimiy qo'lyozmalar jamlangan. Sulaymoniya kutubxonasida ushbu qo'lyozmalarni saqlash, o'rganish va kelgusi avlodlarga bus-butun yetkazish uchun barcha shart-sharoit yaratilgan. Safarimiz davomida kutubxonada saqlanayotgan qo'lyozmalar fondi bilan tanishib, kitoblarni saqlash sharoitlari chuqur o'rganildi.


Bugungi kunda Sulaymoniya kutubxonasida 200 mingdan ortiq tarixiy qo'lyozmalar ideal shart-sharoitlarda saqlanmoqda, – deydi Turkiya Qo'lyozma asarlar boshqarmasi raisi Jo'shqin Yilmaz. – Ularning salmoqli qismi bevosita bugungi O'zbekiston zamini bilan bog'liq. Ularni o'rganish, saqlash va targ'ib qilishda o'zbekistonlik olimlar va mutaxassislar bilan ham doimiy hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Turkiya tarixiy asarlarning faksimil nusxalarini yaratish bo'yicha kelishib oldik.

Uchrashuvda O'zbekiston va Turkiya orasidagi munosabatlar tobora yuksak bosqichga ko'tarilayotgani, bu jarayonda ikki davlat rahbarlari o'rtasidagi yuqori

darajali kelishuvlarning katta ahamiyatga egaligi e'tirof etildi. Uchrashuv davomida qator muhim masalalar, jumladan, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tomonidan amalga oshirilayotgan "O'zbekistonning 100 durdona qo'lyozmasi" hamda "O'zbekistonga tegishli 100 Qur'oni karim nodir qo'lyozmasi" loyihalarini davom ettirish masalalari muhokama qilindi. Sulaymoniya kutubxonasida saqlanayotgan 800 mingdan ortiq qo'lyozmalar orasida O'zbekiston madaniy merosiga aloqador noyob manbalarni hamkorlikda o'rganish, faksimil nashrlarini tayyorlash va ilmiy tadqiqotlar olib borish masalalari kelishib olindi.

Qo'lyozmalarni o'qish va o'rganishda sun'iy intellektidan keng foydalanish zarurligi ham ta'kidlandi. Ayni paytda O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida tarixiy qo'lyozmalarni joriy alifboga o'tkazish ishlari Rossiyaning "Sberbank" kompaniyasi bilan hamkorlikda olib borilmoqda. Kelgusida Sulaymoniya kutubxonasidagi qo'lyozmalarni o'rganishda ham ushbu hamkorlik natijalari qo'llanilishi rejalashtirilyapti.

Uchrashuv so'ngida Turkiya Qo'lyozma asarlar boshqarmasi rahbari O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markaziga buyuk alloma Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarining faksimil nusxasini hadya qildi. Turkiya xalqlarining buyuk mutafakkiri – Mahmud Koshg'ariy 1072-yilda yozib tugallagan "Devonu lug'otit turk"ning yagona qo'lyozma nusxasi Istanbuldagi Millat kutubxonasida 4189 raqami ostida saqlanadi. Boshqarma tomonidan mazkur asarning sanoqli faksimil nusxalari chop qilingan bo'lib, ulardan biri O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ekspozitsiyasida namoyish etilishi kutilmoqda.



“QO‘RQMA, ARQON BAQUVVAT...”

– Birinchi marta ko‘p qavatli uyda ishlayotganimda cho‘tka qo‘lmdan tushib ketdiyu uning ortidan yerga qaradim. Yuragim uvishdi, oyoqlarimni qaltiroq bosdi. Axir 17-qavatda, binoning sirtida edim-da. Yonimda arqonlarga osilib turgan amakim “Manavi suvni ich. Qo‘rqma, arqon baquvat, tag‘in “zapas” arqon ham bor”, dedi.

O‘zbekiston yoshlari

O'sha kuni hech kimga aytmadimu uyqumda halovat bo'lmadi. Ertalab oynaga qarasam uchquq bosgan. Sheriklar hech narsa deydishmadi, amakim esa buguncha dam ol, dedi. Shahar aylandim, bor-e deya, qishloqqa ketgim keldi. Ammo "Moskvasiti"da ish bor, faqat tepada ishlaysan, to'lovi zo'r, deydishganda nima bo'lganda ham shu kasbni o'rganaman, ortga yo'l yo'q, deya qo'l tashlaganim yodimga tushdi. Qolaversa, quruq qo'l bilan uyga qaytishni o'zingma ep ko'rmadim. Xullas, yana arqonlar bilan do'stlashdim, oxir- oqibat lafz qo'rquvni yengdi. Shu-shu quruvchi alpinistga aylandim. Va shunday qilib, ikki yil musofirlikda ishladim.

– Toshkentga yaqinda keldingizmi? – Sakkiz yildan oshdi. Undan avval Piterda (Sankt Peterburg), Kaliningradda ishladim. Hozir 10 kishilik brigadaga boshliqman. 20 ga yaqin shogirdlarim bor. Daromadiga qiziqib ishga keladigan ko'p, ammo ko'pchiligida seskanish bor. Ba'zilar ishimizni biroz kuzatib turadi-da, bizga to'g'ri kelmas ekan, deya ortiga qaytadi. Ayrimlar esa ishga astoydil bel bog'laganday taassurot

uyg'otadi. Chunki ish ko'p, navbatda turganlar oz emas. "Oldindan pul beraman" deganlar ham uchraydi. O'sha sizda umid uyg'otgan talabgor bir pas arqonda osilib turadiyu qo'ldagi asbobni ishlatolmay rangi oqarib ketadi, sezasanki, undan alpinist chiqmaydi. Shuning uchun 10 kishilik "komanda"ni yig'ish oson bo'lmadi. Ularning ham ikkitasi shogird, hali tajribasi kam.

– Daromad qanday? – Ishning hajmiyu murakkabligiga qarab. O'yiga o'rtacha 30 mln. so'm, har safar har xil, ammo nolimaymiz. Shu o'rinda yana bir gap. Toshkentga dastlab kelgan paytlarim hech kimni tanimasdim, shu bois mijoz topish qiyin kechdi. Sheraliboy, jim o'tirma, qurilishlarni kez, e'lon ber, Sharipov sifatli ishlaydi, muammoga o'rin qoldirmaydi, deya odamlarni ishonitir, dedim o'zingma o'zim. Qat'iyatli bo'lish tezda natija berdi va bugun poytaxtga tobora singib boryapmiz. Ayni chog'da bir guruh shogirdlarim bilan O'ybek metro bekati yonidagi 5 qavatli uyning fasadini yakunlayapmiz. Mijoz bajarilgan ishning sifatidan mamnun bo'lyaptiki, rahmat aytdi, kelishilgan pulning yarmini oldindan berdi ham.

– Alpinist-quruvchining asbob-uskunalari ham o'ziga xos bo'lsa kerak? – Muhimi, pishiq arqon va jumar. Buni alpinist o'tiradigan stulcha, desa ham bo'ladi, faqat uning quloqlari bor, arqon o'tib mahkamlanadigan. Umuman olganda, 12 qavatli imoratning sirtida bemaol ishlash uchun har bir kishiga 100 metrdan ortiq pishiq arqon

“ Alpinist quruvchilarga talab kelgusida yanada oshadi, uning xizmatiga to'lov ham. Biz o'shanda 30 qavatli imoratning sirtini bo'yab, butlab ber, deb chet eldan mutaxassis chaqiramizmi? Nazarimda, oliyoghlarda ushbu kasb bilan bog'liq mutaxassislar tayyorlashni yo'lga qo'yish kerak...”

va kerakli mahkamlagichlar zarur. Agar pulga chaqsak, bir yillik asbob-uskuna xarajati 3 mln. so'mdan oshadi.

– Shu paytgacha siz ishlagan eng baland imorat qaysi bo'ldi? – Yaqinda poytaxt teleminorasida, 350 metr balandlikdagi lampochkalarni almashtirishga kirishdik. Jami 5 ming dona yoritqich yangilanadi. Bu mashaqqatli ish, chunki 350 metr tepada havo kam, shamol xavfi yuqori. Faqat bir jihatli zavq beradi kishiga,

Toshkentni ochiq havodan – hech qanday to'siqslarsiz tomosha qilish. Ochig'i, buni ta'rifihsa til ojiz.

– Shogirdlaringiz orasida hamqishloqlar ham bormi?

– Bor, ammo ko'pchilik farzandining bu kasbda ishlashidan cho'chiydi, ba'zilar arqonga osilib ishlashni tasavvuriga ham sig'dirolmaydi. Yaqinda qashqadaryolik, o'zim tug'ilib o'sgan qishloqdosh og'aynim shunday maslahat berdi: "Amakling Alimardon Temirovga o'xshab alpinist-quruvchi bo'lding, bir kun tepadan tushib ketishdan qo'rqmaysanmi, axir ikki o'g'ling, bir qizing bor, yaxshisi, boshqa kasbni tanla". Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmaydi, deymam ularga. O'zingdagi qo'rquvni yengsang, boshqa muammolar g'uborday gap.

qurding degani, buyog'iga binoga qarov kerak emas degani emas. Vaqt o'tadi, fasadni ta'mirlashga to'g'ri keladi. Shu bois baland imoratni loyihalashda uni keyinroq sirtidan ta'mirlashni ham nazardan qochirmaslik lozim. Agar alpinist-quruvchilikka o'qiyisizmi, shunaga bo'lim ochilgan deyishsa, yo'q demasdim.

– Shartnoma-to'lov asosida bo'lsayam o'qiyisizmi?

– Albatta, hali 30 yoshga chiqqanim yo'q, shartnoma bo'lsa-da, o'qiyman. Axir bir umr arqonda osilib ro'zg'or tebratmayman-ku. Surishtirdim, afsuski, yurtimiz oliy ta'lim tizimida alpinist-quruvchi tayyorlaydigan dargoh yo'q ekan. Balki kelgusida bo'lar. Chunki bu xizmatga talab oshyapti, hatto ko'p qavatli binoni sirtidan ta'mirlashu bo'yoqlashni qo'yaturing, oynalarini yuvish ham arzon emas. Ba'zilar bu ishga chetdan mutaxassis chaqirmoqda, valyuta to'layapti. Buni eshitganda ko'nglim og'riydi, nega o'zimizning qo'limizdan keladigan ishni chet elliklar bajarishi kerak, deymam. Aslida, qurilish sohasida bugun haqiqiy mutaxassislar juda ham kerak. Safimiz kengaysin, yana-da bilimdon bo'laylik, deymam. Ana shunda yoshlarimiz Prezidentimiz atganidek, dunyoga chiqadi, oddiy ishchi bo'lib emas, mutaxassis, ish boshqaruvchi bo'lib! Shu tariqa ona Vatanimiz O'zbekiston nomi bu yo'nalishda ham dunyoga mashhur bo'ladi.

Abdunabi ALIQULOV
("Xalq so'zi").

Ijtimoiy himoya

Qish-qirovli kunlarda Buxoro tumanidagi “Dexcha” mahalla fuqarolar yig'ini hududida yashovchi Nafisa Rahmatovaning boshi qotadi. Mabodo, yaqinlaridan kimdir kelgudek bo'lsa, uynining mehmon kutadigan xonasi sovuqligidan xavotirga tushadi. Uni isitay desa, kommunal to'lov masalasida qo'li kalta.

MANZILLI YORDAM MANZILGA YETDI



Yaqinda og'ir xastalikka chalingan, nogironligi bo'lgan bu yurtdoshimizning tashvishi yengillashdi. Oilasiga isitish mavsumida gaz va elektr energiyasi to'lovlarini qoplash uchun 1 million so'm miqdorida bir martalik moddiy yordam ajratildi.

– Prezidentimizning tegishli qaroriga asosan 2025-2026-yilgi isitish mavsumida aholining ehtiyojmand qatlamlariga 1 million so'mdan bir martalik yordam ajratish belgilangan, – deydi Dexcha mahallasi ijtimoiy xodimi Nozima Olimova. – Ushbu mavsumda hududimizdagi 106 ta ehtiyojmand, shuningdek, kambag'allikka tushish xavfi yuqori bo'lgan qator oilalarga xuddi shunday ko'mak berildi. Manzilli yordam manzilga yetganidan "mahalla yettligi" ham mamnun.

Nafisa Rahmatovaga kelsak, u joriy yilda “Kambag'al oilalar reestri”ga kiritilgan. Ayolning hayotini yaxshilash uchun davlat, mahalla va homiylargan ko'magi bilan bir qator ishlar amalga oshirildi. Chunonchi, bola nafaqasini rasmiylashtirishda ko'maklashildi, dori-darmon xarajatlari uchun homiyalar tomonidan moddiy yordam berildi, ko'krak protezi topshirildi. Onkologiya dispanserida davolanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Shuningdek, homiylik asosida tikuv mashinasi va “Averlo” uskunasi olib berildi. Natijada ayol uyida tikuvchilik faoliyatini yo'lga qo'ydi. Ta'kidlanganidek, kommunal to'lov masalasida ham yordam berilgani doimiy davolanishga muhtoj bu hamyurtimiz uchun ayni muddao bo'ldi.

Istam IBROHIMOV
("Xalq so'zi").

Qulaylik

HAYDOVCHILAR UCHUN ZAMONAVIY IMTIHON MARKAZI

Surxondaryo viloyatida haydovchilik guvohnomasi olish jarayonini yanada qulay,tezkor va eng muhimi, shaffof tarzda tashkil etish maqsadida Termiz tumanida haydovchilarni tayyorlash hamda imtihondan o'tkazish markazi ish boshladi.



Yangi markazda bir kunda nazariy jihatdan 800 nafar, amaliyot bo'yicha esa 400 nafar nomzoddan imtihon olish imkoniyati mavjud. Eng muhimi, barcha jarayon inson omilisiz, avtomatlashtirilgan elektron tizim asosida amalga oshiriladi. Bu adolati baholashni ta'minlab, korrupsiyaviy holatlarning oldini oladi.

– Ilgari viloyatdagi avtomaktablar zarur infratuzilmaga ega bo'lmagani sababli fuqarolar haydovchilik imtihonini topshirish uchun Qashqadaryo viloyatiga borishiga to'g'ri kelar edi, – deydi viloyat IIB Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi axborot xizmati boshlig'i, katta leytenant Elnur Abrayev. – Endi esa bu muammo hal bo'ldi. Yangi markazning ishga tushirilishi natijasida aholi boshqa hududlarga borib sarson bo'lmaydi, guvohnoma olish jarayoni o'zimizda qulay va shaffof tarzda amalga oshiriladi.

Umumiy maydoni 3 gektar bo'lgan avtodrom zamonaviy talablarga javob beradigan tarzda qurilgan. Markazda o'quv xonalari, barcha toifadagi transport vositalari uchun moslashtirilgan amaliy sinov yo'laklari kuzatuv kameralari hamda xavfsizlik tizimlari bilan jihozlangan. Imtihonlar “A”, “B”, “C”, “D”, “BE”, “CE” va “DE” toifalari bo'yicha o'tkaziladi.

Yana bir e'tiborli jihati, nogironligi bo'lgan fuqarolarga ham sharoit yaratilgan – ular uchun maxsus moslashtirilgan avtotransport vositalari va infratuzilmalar tashkil etilgan.

Farhod ESONOV
("Xalq so'zi").

2 – 11-dekabr kunlari Toshkent shahridagi “Anhor” bog'i hududida oltinchi bor “Asal bayrami” va milliy asalarichilik hamda oziq-ovqat xalqaro ko'rgazmasi o'tkazilmoqda.

Xalq soʻzi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir Oʻtkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-1242. 10 379 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahiriystga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir G'. Bahromov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 01.50 Topshirildi — 02.00

1 2 3 4 5 6